# YOSHLAR MA‘NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA MUSIQA HAQIDAGI MAQOLLARINING AHAMIYATI.

JDPI “Musiqa madaniyati” fakulteti
Vokal va cholg’u ijrochiligi kafedrasi
o’qituvchisi: **Mingjigit Xolbekov**

Biz hayot kechirar ekanmiz turli insonlar bilan muloqat qilamiz va fikrlarimizni turli so‘z birikmalari, iboralar va maqollar bilan ifodalaymiz. Xalq og‘zaki ijodining bir turi bo‘lgan maqol va iboralar xalqimizning uzoq yillar davomida ko‘rgan kechirganlarini ifodalovchi vosita sifatida foydalanib kelinmoqda, xar bir maqolda ulkan ma‘no, falsafa, tajriba hamda donishmadlik mujassam. Qadimdan so‘zlashuvda maqol va iboralarni ko‘p ishlatuvchi kishilarga ilmli so‘zga chechan tajribali inson sifatida qarashgan. Bugun biz kundalik hayotda uchrab turadigan musiqa bilan bog‘liq maqol va iboralarni tahlil qilib chiqamiz.

Xalqimiz gap uqmaydigan kishiga "qulog‘inga tanbur chertdimmi" deb aytishadi xo‘sh nega aynan tanbur dutor yoki karnay emas. Yaralishi maqom bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin sababi qadimda maqomga e‘tibor kuchli bo‘lgan paytlari asosiy cholg‘u tanbur bo‘lgan. “Qirqida tanbur olgan O'lganda chalar”[1] kabi maqollarimiz tanbur sozini o’rganish mashaqqat ekaniga ishora qilmoqda.

Yana bir ibora borki uni ishtaxasi yaxshi odamga nisbatan "Ishtaxang karnayku" degan iborani ishlatamiz o‘z o‘zidan ma‘lumki karnay katta va ovozi xam shunga yarasha balandroq cholg‘u xisoblanadi shu sababdan bu ibora qo‘llanilgan. Misob uchun surnay yoki nay deb ayta olmaymiz zero karnay O‘rta osiyodagi eng katta musiqiy cholg‘udir. Karnay bilan bog‘liq yana bir ibora bor buni biror kimdan biror ishni qilib berishini so‘rab iltimos qilayotgan odam ko‘proq ishlatadi, mana bu

[1] O’zbek xalq maqollari «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik korapaniyasi Bosh tahririyati, 2005 y.

ishimni xal qilib bering siz uchun bu arzimagan ish qabilida "Karnaychidan bitta puf" deyishadi.

“Ustoz ko’rmagan shogirt xar maqomga yo’rg’alar”[2] darxaqiqat bu hayotda bizga to’g’ri yo’l ko’rsatuvchi inson ustoz xisoblanadi maqolda keltirilgan maqom xar soxaga ma’nosida kelmoqda, o'zbek musiqasining ajralmas bo'lagi maqomlarimiz tarixidan ushbu maqol yaralgan bo'lsa ajab emas, sababi avvallari nota yozuvlari kirib kelmasidan oldin maqomlar ustoz-shogird an'analari asosida bizgacha yetib kelgan, xar bir ustaning o’z uslubi va yo’li mavjud bo’lgan shogirdning ijrosidan qaysi ustoz shogirdi ekanligi bilingan ustoz ko’rmaganlari esa xar turli yo’lda ijod qilganiligi uchun xar maqomga yo’rg’alar iborasi qo’llanilgan. tarixdan malumki maqomlarimiz dastlab 24 maqom so’ngra 12 maqom va xozirda 6 maqom yani Shashmaqom deb yuritiladi. Maqom so’zi arabcha o’rin joy makon ma’nosini anglatadi.

Musiqaning ayniqsa xalq cholg‘ularining so‘zlashuvda ko‘p ishlatilishini yana bir necha iboralar misolida ko‘rishimiz mumkin. Shulardan yana biri "To‘ydan oldin nog‘ora qoqma" iborasidir, nog‘ora qadimdan biror voqea xodisa haqida xabar berish, chorlash, ovoza qilish uchun ishlatilgan Amir Temur xam o‘z yurishlarida bog‘oradan ko‘p va unumli foydalangan. Bu ibora xozirda maqtanchoqlik qilma, biror ishni qilmasdan qildim deb aytma degan ma‘noda ishlatilib kelinmoqda. Nog‘ra bilan bog‘liq yana bir ibora borki uni xam aytish joizdir. Xalqimizda o‘zining xolidan xabarsiz faqat boshqalarning kamchiligini ko‘radigan va tanqid qiladigan odamlarga nisbatan "Avval o‘zinga boq keyin nog‘ora qoq" degan gapni ko‘p eshitamiz buni xam qaysidir ma‘noda musiqaning tarbiyaviy jihati deyishimiz mumkin. Amr qildimki, - deb ta'kidlaydi Amir Temur o‘z Tuzuklari da, “qaysi bir amir biron mamlakatni fath etsa, yo g‘anim lashkarini yengsa, uni uch narsa bilan

[2] O’zbek xalq maqollari «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik korapaniyasi Bosh tahririyati, 2005 y.

mumtoz qilsinlar: (birinchisi) faxrli xitob, tug‘ va nog‘ora berib, unn bahodir deb atasinlar”[3].

Mazkur manbaning yana bir bo‘limi Amir Temurning xalq cholg‘u asboblariga bo‘lgan munosabatini ayniqsa yaqqol namoyon qiladi: «...amr qildimki, o‘n ikki katta amirlarning har biriga bitga bayroq (alam) va bir nog‘ora berilsin, Amir ul-umaroga bayroq sa nog‘ora, tuman tug‘ pa chortug‘ takdim etsinlar Mingboshiga esa bir tug‘ va karnay (nafir) bersinlar Yuzboshi va o‘nboshiga bittadan katta nog‘ora (tabal) bersinlar Aymoqlarning amirlariga bo‘lsa, bittadan burg‘u taqdim etsinlar To‘rt beklar begining har biriga bittadan bayroq, nog‘ora, chortug‘ va burg‘u bersnnlar».

qizig‘i shundaki, Sohibqiron fikriga binoan oddiy xalq orasida keng tarqalgan milliy cholg‘u asboblarimiz qonuniy ravishda hokim va lashkarboshilarning ijtimoiy va harbiy mavqeyini belgilab beruvchi timsolga aylandi. Amir Temurning o‘zi musiqaning xis-tuyg‘ularga ta'sir imkoniyatlaridan boxabar bo‘lib, amaliyotda undan mohirona foydalangan.

Xulosa qilib aytganda maqol va iboralarimizning yoshlar ma‘naviyatini shakllantirishdagi o‘rni beqiyos. Chunki xar bir iborada tarbiyaviy, yaxshilikka undovchi, yomonliklardan qaytaruvchi, fikr yuritishga undovchi, hayotni tushunushga yordam beruvchi jihatlar bisyor. Bugungi kunda chetdan o‘zlashgan turli so‘z va iboralar o‘rniga xalq maqollaridan faydalanish maqsadga muofiq.

3. Temur Tuzuklari” G’.G’ulom nashriyoti Toshkent 1991 yil 80-82 betlar

## Adabiyotlar ro’yxati

1. Jabborov A. Musiqali drama va komediya janrlari O‘zbekiston kompozitorlarining ijodiyotida. T., 2000.
2. Ibrohimov O.A. O‘zbek xalq musiqa ijodi, 1-qism. To‘plam. T., 1994.
3. Yunusov R.Y. O‘zbek xalq musiqa ijodi. 2-qism. To‘plam. T., 2000.
4. Rajabov I. Maqomlar. T., 2006.
5. Solomonova T., Abdullaev R. O‘zbek musiqasi tarixidan xrestomatiya. T., 1983.
6. “Temur Tuzuklari” G’.G’ulom nashriyoti Toshkent 1991 yil 80-82 betlar